

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

70

Andijon mashinasozlik instituti  
“Iqtisodiyot” kafedrasи professori,  
iqtisod fanlari doktori Qiyomiddin  
Muftaydinovning 70 yillik yubileyiga  
bag'ishlangan

**“ERKIN BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY  
ETISH HAMDA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI  
YARATISH ORQALI HUDUDLARDА  
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI”**

mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy  
anjuman konferensiya materiallari

2023-yil 4-mart

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**"ERKIN BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY ETISH HAMDA  
SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI YARATISH ORQALI  
HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI"** mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman  
**ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO'PLAMI**

4 mart 2023 yil

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ И  
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

**СБОРНИК НАУЧНЫХ СТАТЕЙ И ТЕЗИСЫ**  
Республиканская научно-практическая конференция на тему  
**«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В  
РЕГИОНАХ ПУТЕМ РЕАЛИЗАЦИИ МЕХАНИЗМОВ  
СВОБОДНОГО РЫНКА И СОЗДАНИЯ ЗДОРОВОЙ  
КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ»**  
4 марта 2023 года

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
ANDIJAN STATE UNIVERSITY AND  
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE

**COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES AND ABSTRACTS**  
Republican scientific and practical conference on the topic  
"PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN  
THE REGIONS BY IMPLEMENTING THE MECHANISMS OF A FREE  
MARKET AND CREATING A HEALTHY COMPETITIVE  
ENVIRONMENT"  
March 4, 2023

**ANDIJON – 2023**

**ББК:97456(575)-МК5.03**

**УДК:33842.451.571**

**“Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog’lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari”** mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalar va tezislар to’plами. – Andijon.: AndMI, 2023. 1080 b.

**Ma’sul muharrir:** i.f.d., professor I.Yu.Umarov

**Tahrir hay’ati:** i.f.d., v.b. prof. U.A.Madraximov, i.f.n., dots. G.A.Zufarova, i.f.n., dots. U.I.Maraimova, i.f.f.d.(PhD) D.X.Sarimsakov, i.f.n., dots. Z.A.Isroilov, i.f.n., dots. (PhD) M.A. Axunov, i.f.f.d.(PhD) M.A.Karimov, katta o’qituvchilar: M.G’.Abdullaev, Z. Teshaboyeva, G.Satiqulova

**Kompyuter va dizayner boyicha ma’sullar:** S.A.Mirzaev, O.O.Mo’ydinov.

**Taqrizchilar:** i.f.d., prof. N.I.Asqarov, i.f.n. dots. C.M.A’zamov.

Konferentsiya ilmiy maqolari va tezislari erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog’lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog’liq ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o’qituvchilar, ilmiy xodim-izlanuvchilar va magistantlar va talabalar uchun mo’ljallangan.

*Mazkur to’plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to’g’riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o’zлari ma’suldirlar.*

**©Andijon davlat universiteti va Andijon mashinasozlik instituti, 2023 yil.**

	<b>YALPI YIG'ILISHI MA'RUZALARI</b>	
У. М.Турдиалиев	Сифатни бошқариш Ўзбекистон саноати тараққиётининг муҳим омили	20
С.С.Гулямов, А.Т.Шермуҳамедов	Инновации в экономике Узбекистана	22
Н.М.Махмудов	“Яшил” иқтисодиёт асосида иқтисодий ўсишни таъминлаш муаммолари ва ечимлари	26
М.А.Икрамов	Тадбиркорлик фаолиятида маркетингнинг ўрни	31
А.М Қодиров	Минтақавий бошқаришни иқтисодий усулларини шакллантириш йўллари	34
И.Ю.Умаров	Озиқ-овқат саноатида тадбиркорликни ривожлантириш механизмларини иқтисодий моҳияти	37
	<b>1-СЕКЦИЯ. BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY ETISH MASALALARI</b>	
A.S.Asraqulov	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi bandligi mohiyati va bandlik tendensiyalari mazmunidagi o‘zgarishlar	43
З.А.Мирзаев	Эркин бозор шароитида божхона тўловларини ундириш ва улар бўйича имтиёз бериш механизмини такомиллаштириш	48
Ш.Б.Камолов	Эркин бозор механизмларининг жорий этилишида нодавлат нотижорат секторининг ўрни	51
A.Yunusov	Mehnat jamoalarini boshqarishda iqtisodiy usullardan foydalanish	53
S.A.Mirzayev	O‘zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarining o‘rni	57
B.B.Sharipov	Qambag’allikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	58
А.А.Хаджимуратов	Инновацион тадбиркорлик ва эркин бозор механизмларини жорий этилиши	60
Ш.З.Мухитдинов	Ишлаб чиқариш корхоналарида рискларни бошқаришнинг методологиясининг назарий асослари	64
О.А. Арипов, Ш.Д. Довлатова	Кичик бизнес ва тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солишнинг айrim муаммолари	68
С.Х.Рустамова	Қарор қабул қилишда шахснинг фазилатлари	72
М.Қ.Муфтайдинов	Ўзбекистонда озиқ-овқат саноати корхоналари иқтисодий механизмини ривожлантиришнинг институционал асослари	75
А.Н.Камилова, М.Хакимов	Факторы, влияющие на производительность труда на промышленном предприятии	78
А.Қ.Исхаков	“Ўзқимёсаноат” акциядорлик жамияти фаолиятини самарадорлигини баҳолаш механизмини такомиллаштириш	80
V.G‘.Abduraxmonov, N.Sh.Umarova, Sh.S.To‘uchieva B.A.Abdullahayev, Sh.Sirojiddinov	Agrobiznesda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashning ayrim jixatlari	84
	Tizimli tahlil qilishning maqsad, natija va manbalar o‘rtasidagi bog‘liqlik	88

У.А.Юлдошев	Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида	90
И.Х.Мамадуллаев	Давлат-хусусий шериклик механизмидан фойдаланиш	
Н. Эргашева	Корпоратив бошқарув ва уни баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари	92
Н.М.Эргашбаева	Мактабгача таълим ташкилотларида аутсорсинг	95
М.М.Ахмаджонов, О.О.Ибрагимов	хизматларидан самараали фойдаланиш	
O.S.Muxtorova	Механизмы финансовой поддержки предприятий пищевой промышленности.	98
A.K.Sativaldiyev M.A.Zaynobiddinova, Z.S.Aripova, F.Usmonov	Рақобатнинг иқтисодий мазмуни ва шаклланишининг асосий тамоиллари	100
M.Y.Tuxtarova, M.O'.O'smonjonov	Aktionerlik jamiyatlarda joriy aktivlar hisobi va uni takomillashtirish masalalari	103
S.M.Kamilova	Halol mahsulotlarning tahlili va xususiyatlari	105
М. Маматов	Iqtisodiy ehtiyoj va ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog'liq ehtiyojlarning ayrim jihatlari	109
С.Раджабов Б.Б.Якубова, М.Бердиқулова	Iqtisodiyotda bozor mexanizmi	111
Н.Б.Джумаева	Sug'urta marketingining iqtisodiy mohiyati, uni tashkil etish tamoyillari	113
Ш.А.Мусаева, Д.И.Усмонов	Государственное регулирование инновационной деятельности в аграрном секторе	117
З.Т. Абдулхакимов	Пути развития национального рынка ссудного капитала	119
Z.Turg'unboyev, B.Tolibjonov	Саноат корхоналарида меҳнат самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизми	122
I. I.To'raboyev	Суғурта ташкилоти ва мижоз муносабатларни ташкил этишнинг психологик ва иқтисодий асослари	124
X.X. Rejapov, M.X.Eshqobilova, L.Sh. Ishmamatova	Цели и перспективы развития ковровой отрасли Узбекистана	127
S.K.Boyjigitov	“Сафед булон ёки шоҳ жарир” номли зиёрат - туристик маршрутини ишлаб чиқиш истиқболлари	130
N. N. Asadov	Boshqaruvda rahbarlik faoliyatining mazmuni va ahamiyati	134
I.R.Berdikulova	Bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari	137
Z.Jabborova	Davlat budjeti ijrosi va uning nazorati	139
	Don va donni qayta ishlash sohasida bozor mexanizmlarini to'liq joriy etish	142
	O'zbekistonda halol turizm standartlarini joriy etish strategiyasi va istiqbol parametrlari	144
	Turistik firmalar xo'jalik faoliyati samaradorligining nazariy va metodologik tahlilini takomillashtirish	148
	Turizmda innovatsion jarayonlar asosida turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish	154

М. Абдумуталибова	XIX-XX аср бошларида фарғона водийсидаги бозорлар, уларни иқтисодий муносабатлардаги ўрни ва аҳамияти	157
Z.S.Aripova, M.Soliyeva, N.Jaloliddinova	Zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etishning ba'zi masalalari	160
Г. Х.Сативалдиева, Д.Курбонова	Ижара муносабатларининг иқтисодий моҳияти ва уларни ривожлантиришнинг аҳамияти	163
Х.Кучкаров	Меҳмонхона хўжалигига инновация ва туризмни ривожлантириш омиллари	166
Н.Б.Джураева, Н.А.Камолова	Развитие экотуризма в Узбекистане	169
Г.Зуфарова, М.Аҳмадалиева	Хўжалик фаолиятида хизмат кўрсатиш фаолиятини такомиллаштириш	171
O.N.Odiljonova	Iqtisodiyotni liberallashtirish O'zbekistonning muhim strategiyasi	173
A.Anafiyayev, M.Rayimjonova	Islomiy bank va O'zbekiston	176
O'.O.Sheraliyeva, A.K Sativaldiyev	Korxonada smt ishlab chiqish va amalga oshirish	179
X.R.Xamroyev	Psixologik xarakterdagи ehtiyojlar va turizm	182
К.Аҳмедов, Ш.Усмонжонов	Корхонанинг молиявий ҳолати ва банкротлик таҳлили	186
Н.Х. Муратов	Савдони ривожлантиришда ракамли маркетингни аҳамияти	188
A.Voxidov	Bozor iqtisodiyoti sharoitida barkamol avlodni shakllantirishda iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati	190
С.К.Салаев, Б.У.Таджиев	Тадбиркорликни давлат тамонидан қўллаб-қувватлашни янгича йўналишлари	192
<b>2-СЕКЦИЯ. SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI TA'MINLASH YO'LLARI</b>		
A.T.Mirzayev	Hududlarda turizm sohasini rivojlantirish va korxonalar raqobatbardoshligini boshqarish mexanizmini takomillashtirish	196
A.A.Azlarova, E.R.Maxmudova	Sog'lom raqobat muhitini ta'minlashda banklarning raqamli texnologiyalardan foydalanishining ahamiyati	200
D.I.Ostonaqulov	Sog'lom raqobat muhitini ta'minlash	203
G.T.Toxirova	O'zbekiston respublikasida raqobat muhitini takomillashtirish yo'llari	205
B. Z.Arzimatov	Biznesda raqobatni ta'minlash va rivojlantirishda davlatning roli	209
B.U.Shermuxamedov	Banklararo raqobatning mohiyati va depozit siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati	211
D. B. O`roqova, N.A. Akramova	Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikning mohiyati	214
D.D.Rustamova, I.R.Sheraliyev	Raqobatbardoshlik muhitini shakllantirish	218
M.M.Turg'unov	Oziq-ovqat sanoatida sog'lom raqobat muhitini ta'minlash	221

ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2017 yilda jami depozitlarning 26,9 foizini xorijiy valyutadagi depozitlar tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib bu ko'rsatkich 43,1 foizga yetgan.

2017 yilda jami depozitlar 37,2 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan xorijiy valyutadagi depozitlar 10,0 trln. so'mdan ortiqni tashkil etgan. 2021 yilga kelib esa jami depozitlar summasi 114,7 trnl. so'm bo'lgani holda xorijiy valyutadagi depozitlar summasi 49,4 trln. so'mga yetgan.

Mazkur holat valyuta bilan bog'liq bo'lganligi uchun bank amaliyotida valyuta riskini keltirib chiqaradi va bu banklarning oqilona siyosat yuritishga undaydi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rindan, davlat ulushi mavjud tijorat banklari jami depozitlarning 72 foizini tashkil etmoqda. Bunda O'zmilliybank 15 foiz, O'zsanoatqurilishbank 10 foiz, Asaka bank 8,5 foiz va Ipoteka bank 8,3 foiz ko'rsatkich bilan yetakchilik qilmoqda. Chet el kapitali ishtirokidagi tijorat banklarida bu ko'rsatkich juda sust ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich, "Tijorat banklarining depozit siyosati va uni iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish yo'llari", "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil
2. Mirzayev F.I. "O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning konseptual asoslari". Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati - T.: 2009.-B.11.
3. Ortiqov O.A. "Banklararo raqobat muhiti sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo'llari". Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati - T.: 2009 - B.7-8..
4. Никова И.А., Шамгунов Р.Н. Стратегия и стоимость коммерческого банка.-М.: "Альпина Бизнес Букс", 2004.-304 с.
5. O'lmasov A., Vaxobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Sharq, 2006. 223-b.
6. Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

## **TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNING MOHIYATI**

**O`roqova Dilfuza Baxriddinovna**


Bukhara state universiteti, [u.dilfuza1985@gmail.com](mailto:u.dilfuza1985@gmail.com). 914407049

**Akramova Nasibabonu Abdurahmonovna**

Turizm (faoliyat turlari boyicha) 2 kurs magistranti. [n.a.akramova@buxdu.uz](mailto:n.a.akramova@buxdu.uz)

Turistlik xizmat bozori – turistlik xizmatlarning xaridori (talabni taqdim etuvchilar) va sotuvchilarini (mahsulot bilan ta'minlovchi) birlashtiruvchi institut yoki mexanizmdir. Boshqa tovar bozorlaridan farqli o'laroq, turistlik xizmat bozori o'zida tovarning sotuvchidan xaridorga ko'chishini anglatmaydi. Turistlik xizmatlar bozorini tahlil qilar ekanmiz, biz ongli ravishda tadqiqotimiz sohasini turistlik industriyaning birgina, biroq eng muhim segmentidagi – turistlik firmalar

faoliyatidagi munosabatlar bilan chegaralanamiz. Tashkilotning raqobatbardosh ustunliklarini shakllantirish u ishlayotgan bozorning xususiyatlarini bilmasdan faoliyat yuritish mumkin emas. Turizm xizmatlar bozorida xizmatlar almashinuvning asosiy qismi -bu rivojlangan turizm bozorlarida jami sotuvlarning 80 foizini tashkil qiladi. Turizm bozorining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda nafaqat "turistik taklif" toifasiga, balki "turizm xizmati" kontseptsiyasiga, shuningdek, "turizm talabi" tushunchasiga ham ustuvor o'rinn berilgan, uning konsepsiyasiga turizm tashkilotlarining ehtiyojlari va istaklari qondirishni nazarda tutadigan iste'molchiga ham muhim o'rinn berilishi kerak. Turistik xizmat bozori ishslash mexanizmining tushunchasiga ta'rif berish muhimdir.



### 1-chizma.manba: Muallifning izlanishi

Turistik xizmatlarning raqobatbardoshligini baholash masalasi, ichki va tashqi turizm bilan shug'ullanuvchi sayyohlik tashkilotlari uchun ayniqsa muhimdir. Bu shuningdek, ayrim tarixiy boshqaruv shartlari bilan ham oqlanadi. Agar rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida turistik xizmatlar aholi ko'pchiligi uchun to'sqinlik qilmasa, ular taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati va narxining darajasidan qat'iy nazar talabga ega bo'lib, bozor sharoitlarida chet ellik sayyohlik xizmatlariga iste'molchini tanlashning tanqisligi tufayli xizmatlar sotish bilan bog'liq muammolar mavjud edi. Sanoat nafaqat tashqi bozorda, balki ichki bozorda ham raqobatbardosh emas edi.

Turizm industriyasining raqobatbardoshligi mamlakatning turistik resurslarining yuqori darajada mavjudligini va ularni samarali ishlatish darajasini ifodalovchi, global turizm bozorining yuqori ulushini ta'minlovchi xususiyat sifatida tavsiflanadi. Turistik xizmat bozori ishslash mexanizmi deganda turistik mahsulotga, «pul-turistik maxsulot» almashinuviga, pul va turistik mahsulot oqimlariga bo'lgan talab va taklifning mutanosibligini ta'minlash uchun bajariladigan iqtisodiy amallar tizimi tushuniladi. . Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.Q.Pardaev va H.N.Musaevlar xizmatlar bozorining xususiyatlarini quyidagicha ta'riflaydilar:

- yuqori dinamizm;

- hududiy bo`g`inlashtirish va lokal tavsif;
- qayta ishlab chiqish sikli tufayli kapital aylanishining yuqori tezligi;
- kichik va o`rta korxonalarining ko`pchiligi, shuningdek xizmatlarni yuklash, tushirish va taxlashning imkoniyati bo`lmaganligi tufayli ularning bozor konyukturasiga yuqori sezgirligi;
- ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o`rtasidagi shaxsiy aloqa bilan bog`liq bo`lgan xizmat ko`rsatish jarayoning xususiyatlari;
- ko`pchilik tarmoqlardagi mahsulotning yuqori differençiallashuvi;
- xizmatlarni ko`rsatishda ko`pchilik holatlarda natijani oldindan bilib bo`lmaslik;
- ishlab chiqaruvchi va iste`molchi o`rtasidagi axborot bo`yicha mutanosiblikning mavjud emasligi Mamlakatimizda xizmatlar sohasi uchun qulay imkoniyatlar yaratish borasidagi izchil islohotlar bugungi kunda o`z samarasini bermoqda.

Turizm sanoati tashkilotlarining faoliyatining murakkabligi iste'molchi tomonidan sayyohlik xizmatlarining sifatini baholash juda o`rinlidir va turli omillarga bog'liq: -umumiyl iqtisodiy,

- madaniy va ijtimoiy-psixologik xususiyati,
- ijtimoiy-demografik,

Turizm xizmatlari sohasidagi talabga sezilarli ta'sir ko`rsatuvchi omil bu iste'molchidir. Istemolchining ijtimoiy psixologiyasida kelib chiqqan holda , masalan, xabardorlik, ta'limning yuqori darajasi, xizmatlarning qulayligi va sifati uchun yuqori talablar, individualizm, iste'molchining fikrlash ekologizatsiyasi, harakatchanlik, dam olishda jismoniy va aqliy faoliyat, taassurotlar kaleydoskopini olish istagi (1-jadval.).

Turizm sohasining raqobatbardoshligini shakllantirish bu turistik hududlarni raqobatbardoshligi muammosi ni bir qator xorijiy o`rgangan bo`lib G.Grouch va B.Ritchie” Turistik hudud raqobatbardoshligi – tashrif buyuruvchilarga taqdim etadigan umumuyl jozibadorlik va ijobiy sayohat tassurotlar potensial tashrif byuruvchilar uchun ochiq bo`lgan ko`plab muqobil sayyohatgohlarga nisbattan teng yoki ulardan ustun bo`lishining ta`minlashidir.

Mahsulot raqobatbardoshligining ta'rifini tahlil qilish va tadqiqot mavzusi haqidagi g'oyalarimiz sayyohlik xizmatlarining raqobatbardoshligi kontseptsiyasini tushuntirish va uning boshqa iqtisodiy toifadagi joylarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo`lgan bir nechta nuqtalarni ta'kidlash imkonini beradi:

- sayyohlik xizmatlarining raqobatbardoshliligi ularning iste'molchiga jozibadorligini anglatadi;
- turizm xizmatlarining jozibadorligi turli, ba'zida qarama-qarshi talablar majmuuni qondirish darajasi bilan belgilanadi;
- talablarning tarkibi, ularning ustuvorligi ham mahsulot turiga, ham mijozlar turiga bog'liq;
- iqtisodiy toifaga kiradigan raqobatbardoshlik o'ziga xos bir bozorga va o'ziga xos analogga nisbattan qaralganda nisbattan nisbiylikga ega;

aqobatbardoshlik dinamik tabiatga xosdir - bozor sharoitida vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarni hisobga olgan holda, uni faqat ma'lum bir vaqtga nisbattan hisobga olish mantiqan;

**Turistik xizmatlar iste'molchisining hatti-harakati modeli**

<b>Umumiqtisodiy faktorlar</b>	<b>Jamiyatning madaniy – ruhiyatidan kelib chiqqan holda</b>	<b>Demografik nuqtai nazardan</b>	<b>Shahsiy xususiyatlaridan kelib chiqib</b>	<b>Iste'molchining iste'mol davrida</b>
Daromadli kasbda ishlasi va bo'sh vaqtning ko`pligi	-Hayotdan zavqlanish; - o`zga madaniyatlarga qiziqishi; - ekologiya tabiatga qiziqishi; - yashab turgan muhitidan boshqa muhitga o'tish; - yangi tanishlar ortirish.	Jinsi; yoshi; ma'lumoti; mutahssisligi; jamiyatda qaysi guruh azosi; oilaviy sharoiti; mulkdorligi; oila tarkibi; qaysi hududda ishlashi.	Istemolchining shaxsiy xususiyatlari; hayot tarси; qiziqishlari va vaqt; dinniy qarashlari; maqsadi va motive.	O'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sayohat; axborot izlash uchun; savdo sohasida; xarid uchun; sotib olingandan so'ng muqobilini baholash .

**Manba:** ma'lumotlarga asoslanib mualif tomonida ishlab chiqildi.

- raqobatbardoshlik muammosi, asosan, o'tish davridagi noodatsiz bo'lмаган bozorga qaratilgan;
- raqobatbardoshligi turistik xizmat turadigan hayot aylanish bosqichiga bog'liq;
- bozorning ma'lum bir bozor ulushi bo'lgan xizmatlarning raqobatbardoshligi haqida gapirish mantiqiy va raqobatbardoshlik ko'rsatkichi avvalgi davrdagi bozor ulushiga bog'liqdir.
- raqobatbardoshlik dinamik tabiatga xosdir - bozor sharoitida vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarni hisobga olgan holda, uni faqat ma'lum bir vaqtga nisbatan hisobga olish mantiqan to`g`ri;
- raqobatbardoshligi turistik xizmat turadigan hayot aylanish bosqichiga bog'liq;
- bozorning ma'lum bir bozor ulushi bo'lgan xizmatlarning raqobatbardoshligi haqida gapirish mantiqiy va raqobatbardoshlik ko'rsatkichi avvalgi davrdagi bozor ulushiga bog'liqdir.

Turistik xizmatlarning raqobatbardoshligi ularni ta'minlaydigan tashkilotning raqobatbardosh afzalliklari bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar asosiy turistik xizmatlarning o'ziga, shuningdek, qo'shimcha xizmatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, shuningdek, xizmatlar, sotish va boshqalarni ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllariga bog'liq bo'lishi mumkin. Raqobat afzalligi har doim ham nisbatan, chunki bu eng kuchli raqobatchilar bilan taqqoslaganda aniqlanadi.

Turistik xizmatlarning raqobatbardoshligi ularni ta'minlaydigan tashkilotning raqobatbardosh afzalliklari bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar asosiy turistik xizmatlarning o'ziga, shuningdek, qo'shimcha xizmatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, shuningdek, xizmatlar, sotish va boshqalarni ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllariga bog'liq bo'lishi mumkin. Raqobat afzalligi har doim ham nisbatan, chunki

bu eng kuchli raqobatchilar bilan taqqoslaganda aniqlanadi Ta'kidlash joizki, turizmni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi barcha omillar orasida shaxsiy va xulq-atvor omillari zamonaviy dunyoda etakchi rol o'ynaydi, ular iste'molchilarning sayohat qilish istagini ta'minlaydigan motivlardan iborat bo'lib, sayyoohning talablariga javob beradi. Turistik xizmatlar bozorini shakllantirishda psixologik omillarning rolini tahlil qilib, faqat bir nechta sayyoohlар ilgari bo'lgan joylarga, iqtisodiy, terapevtik va profilaktik yoki hissiy motivlar mavjudligidan tashqari, yana qaytib kelishlari isbotlangan.

Turizm iqtisodiyotning ustuvor yonalishlaridan biri ekan, uning salohiyatini oshirishga etibor qaratish, jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritilishiga yonaltirilgan yaxlit konsepsiya shakllantirilishi hamda amalga oshirilishini taminlash lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1.H.N.Musayev va M.Q. Pardayevlar tahriri ostida "Xizmat ko`rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish"

2. Crouch, G.I. and J.R.B. Ritchie (2005). 'Application of the Analytic Hierarchy Process to Tourism Choice and Decision Making: A Review and Illustration Applied to Destination Competitiveness', *Tourism Analysis*, 10(1): 17-25.

3. H.N Musayevlar tahriri ostida "Xizmat ko`rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish muammolari va yechimlari. T.; 2008—47b

4.O`roqova D.B, Qodirov A. Kichik biznesda innovatsion faoliyat va uni rivojlantirish masalalari// *Biznes-ekspert* journali 2020 1(145)-son, -B. 66-69.

5.O`roqova D.B. Problems and prospects of development of ecological tourism in Uzbekistan// *Trans Asian journal of marketing & management research(tajmmr)* impact aprel spl issue 2020, factor:sjif2020=7.209

**RAQOBATBARDOSHLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH**  
**Rustamova Dilsaboxon Djurayevna**

TMI Andijon fakulteti «Ijtimoiy-gumanitar va mutaxassislik fanlari» kafedrasи mudiri, i.f.n.

**Sheraliyev Islombok Ravshanbek o'g'li**

TMI Andijon fakulteti «Moliya va moliyaviy texnologiyalar» yo'nalishi  
1-kurs talabasi

Raqobat muhitini yaratishda mahalliy mahsulotlarning ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda yuqori raqobatbardoshligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan va qayta ishlangan mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi ulushi salmoqli bo'lsa-da, uni yanada oshirish imkoniyati mavjud. Bu ichki bozorni to'ldirish, eksportbop mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga e'tibor qaratishni dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Barqaror rivojlanishga erishish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ilg'or innovatsion iqtisodiyotga ega bo'lishni taqozo etadi. Bunga erishish uchun ichki bozorda barcha tovar ishlab chiqaruvchilar uchun teng raqobat imkoniyatlarini yaratish, ya'ni qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish, milliy ishlab chiqaruvchilarni tashqi bozorlarda